

## YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA ESG TAMOYILLARINING AHAMIYATI

*Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi*  
*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya*  
*akademiyasi tayanch doktoranti*  
<https://orcid.org/0009-0004-3225-5312>  
[g.akhmadjonova@gmail.com](mailto:g.akhmadjonova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqotda ESG mezonlarining moliyaviy institutlar faoliyatiga integratsiyalashuvi, uning investitsion samaradorlik va risklarni kamaytirishga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, ESG tamoyillarining yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi roli hamda mavjud institutsional muammolar baholandi. Natijada ESG asosidagi yondashuvlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** yashil moliyalashtirish, ESG tamoyillari, barqaror rivojlanish, moliyaviy institutlar, risklarni boshqarish, investitsion samaradorlik

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil moliyalashtirish muhim moliyaviy instrument sifatida shakllanmoqda. Xususan, iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va resurslardan foydalanish samaradorligi masalalari moliyaviy tizim faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda. Ushbu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiyalashib, yashil moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

ESG tamoyillarining joriy etilishi moliyaviy institutlar faoliyatida risklarni kamaytirish, investitsion samaradorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, ekologik mezonlar orqali resurslardan oqilona foydalanish rag'batlantirilsa, ijtimoiy va boshqaruv omillari korxonalar faoliyatining barqarorligini oshiradi. Shu jihatdan, ESG tamoyillarining yashil moliyalashtirishni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Yashil moliyalashtirish va ESG tamoyillarining o'zaro bog'liqligi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, United Nations Environment Programme Finance Initiative hisobotlarida ESG tamoyillarining moliyaviy institutlar faoliyatiga integratsiyalashuvi risklarni kamaytirish va barqaror investitsiyalarni kengaytirishda muhim omil ekani ta'kidlangan [1].

International Finance Corporation tadqiqotlarida ESG mezonlarini moliyalashtirish jarayoniga joriy etish orqali investitsiya samaradorligi oshishi va kredit risklari kamayishi asoslab berilgan [2].

World Economic Forum tahlillarida esa ESG tamoyillarining keng qo'llanilishi moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashi va yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirishi qayd etilgan [3].

Yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda ESG tamoyillarining ahamiyati moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlashda tobora ortib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ESG mezonlarining moliyaviy institutlar faoliyatiga integratsiyalashuvi nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Xususan, ekologik omillarni hisobga olish resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirsa, ijtimoiy va boshqaruv komponentlari korxonalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Mazkur jarayonni tizimli baholash maqsadida ESG tamoyillarining yashil moliyalashtirishga ta'siri quyidagi jadvalda keltirilgan.

**1-jadval****ESG tamoyillarining yashil moliyalashtirish rivojlanishiga ta'siri [1]**

<b>ESG komponenti</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Yashil moliyalashtirishga ta'siri</b>
<b>Environmental (E)</b>	Ekologik omillar (CO <sub>2</sub> chiqindilar, energiya samaradorligi)	Ekologik loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantiradi
<b>Social (S)</b>	Ijtimoiy omillar (mehnat sharoiti, mijozlar bilan ishlash)	Investitsiyalarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi
<b>Governance (G)</b>	Korporativ boshqaruv sifati	Moliyaviy risklarni kamaytiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, ESG tamoyillari yashil moliyalashtirishning barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Xususan, ekologik komponent moliyaviy resurslarni "yashil" loyihalarga yo'naltirishni ta'minlasa, ijtimoiy va boshqaruv omillari ushbu loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlaydi.

Moliyaviy institutlar, ayniqsa tijorat banklari faoliyatida ESG tamoyillarining joriy etilishi kreditlash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ekologik jihatdan samarali loyihalarga ustuvorlik berilishi investitsiya oqimlarining qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Bu esa iqtisodiyotda yuqori resurs talab qiluvchi va ekologik zararli ishlab chiqarishdan past uglerodli va innovatsion tarmoqlarga o'tish jarayonini jadallashtiradi.

Shu bilan birga, ESG tamoyillarining amaliyotga joriy etilishi moliyaviy risklarni kamaytirish vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Xususan, ESG mezonlari asosida baholangan loyihalarda uzoq muddatli barqarorlik yuqori bo'lib, bu kredit risklarining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, korporativ boshqaruv darajasi yuqori bo'lgan subyektlar bilan ishlash moliyaviy institutlar uchun operatsion va reputatsion risklarni kamaytiradi.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarini joriy etish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Xususan, ESG ko'rsatkichlarini baholashning yagona metodologiyasining yo'qligi, ma'lumotlar bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda moliyaviy institutlarda ushbu yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislarining yetishmasligi ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda.

Umuman olganda, ESG tamoyillarining yashil moliyalashtirishni rivojlantirishdagi o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularni moliyaviy tizimga keng joriy etish iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash va risklarni kamaytirishda муҳим аҳамият касб этади.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ESG tamoyillarining moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi yashil moliyalashtirishni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Xususan, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini moliyalashtirish jarayoniga joriy etish moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlab, iqtisodiy o'sishning barqaror modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tahlillar asosida aniqlanishicha, ESG mezonlari asosida moliyalashtirilgan loyihalar uzoq muddatli barqarorlikka ega bo'lib, bu kredit risklarining pasayishi va investitsion samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etish jarayoni hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ushbu yo'nalishda metodologik yondashuvlarning yetishmasligi, statistik ma'lumotlar bazasining cheklanganligi hamda malakali mutaxassislar tayyorlash darajasining pastligi kuzatilmoqda. Bu esa yashil moliyalashtirishni kengaytirish va uning iqtisodiy samaradorligini to'liq namoyon etish imkoniyatlarini cheklaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida, avvalo, ESG mezonlari asosida yashil moliyalashtirishni baholashning yagona metodologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Shu bilan birga, tijorat banklari faoliyatida ESG-risklarni baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish, ekologik loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantiruvchi moliyaviy instrumentlarni kengaytirish hamda kreditlash jarayoniga ESG mezonlarini bosqichma-bosqich integratsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, davlat tomonidan yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish, xalqaro moliya institutlari

bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ESG sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ESG tamoyillarini keng joriy etish yashil moliyalashtirishning samaradorligini oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. United Nations Environment Programme Finance Initiative. Principles for Responsible Banking. – Geneva: UNEP FI, 2019. – 40 p.
2. International Finance Corporation. ESG Integration in Financial Institutions. – Washington, DC: IFC, 2021. – 65 p.
3. World Economic Forum. Global Risks Report 2024. – Geneva: WEF, 2024. – 96 p.